

INTELLEKTUAL MULK HUQUQIDA MAJBURIY LITSENZIYA INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY-EVOLYUTSION RIVOJLANISHI: NAZARIY- HUQUQIY TAHLIL

Makhmudov Nizomiddin Olimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Intellectual mulk va axborot texnologiyalari

huquqi yo'nalishi magistranti

Toshkent, O'zbekiston.

Elektron pochta: nizomiddin0066@gmail.com

Bugungi kunda jahon bo'ylab intellektual mulk huquqlari egalari o'zlarining monopol huquqlaridan foydalangan holda raqobatchilarni sudga berishlari mumkin – bu raqobatchilar chalg'ituvchi darajada o'xshash belgi ishlatgan bo'lsa, patent da'vo doirasiga kiruvchi ixtironi qo'llagan bo'lsa yoki mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarga sezilarli darajada o'xshash ish yaratgan bo'lsa. Eng muhimi, intellektual mulk huquqlari buzilgan taqdirda, huquq egasi sud orqali bu huquqni buzgan shaxslarga nisbatan taqiq qo'yuvchi qaror (injunction) chiqarilishini talab qilishi mumkin, bu esa buzuvchi tomonning ushbu intellektual mulk obyektidan foydalanishini taqiqlaydi. Mualliflik huquqlariga kelsak, ayrim holatlarda huquq egalari san'at, musiqa, adabiyot kabi madaniy asarlardan xususiy ravishda foydalanayotgan oddiy foydalanuvchilarga ham to'sqinlik qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Majburiy litsenziya instituti intellektual mulk huquqi doirasida huquqiy muvozanatni ta'minlovchi eng murakkab mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu institut, bir tomondan, patent egalarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilsa, boshqa tomondan, sog'liqni saqlash, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy ehtiyojlar nuqtai nazaridan jamoat manfaatlariga xizmat qiladi¹. Aynan shu ikki qutb orasidagi muvozanat majburiy litsenziya institutining o'ziga xosligini belgilaydi. Intellektual mulk huquqlarining jamoat manfaatlari bilan to'qnashuvi intellektual mulk huquqlarining asosi bo'lgan eksklyuzivlik tamoyili, ayniqsa farmatsevtika sohasida, hayot-mamot masalalariga taalluqli bo'lgan dori vositalarining narxini oshirishi va ular bilan ta'minotda muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday holatlar rivojlanayotgan mamlakatlarda salbiy ijtimoiy va epidemiologik oqibatlarga olib keladi. Dori vositalarining patent himoyasi ostida bo'lishi ularning raqobatchilar tomonidan ishlab chiqarilishini taqiqlaydi, bu esa narxlarning yuqoriligi va ta'minotdagi yetishmovchiliklarga olib keladi. Jamoat salomatligi yoki milliy xavfsizlik kabi ustuvor ehtiyojlar tahlikaga uchragan hollarda esa hukumatlar majburiy litsenziya berish orqali ushbu muammolarga yechim topishga urinadilar.

Bu institut, ayniqsa, sog'liqni saqlash, pandemiyalarga qarshi kurash va iqtisodiy rivojlanish kabi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Professor O. Oqyulovning ta'biri bilan aytganda, ushbu institut ham intellektual mulk huquqi bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatda o'z mohiyatiga ko'ra inson ijodiy mahsullarini yaratish, ulardan foydalanishni tartibga soladigan² juda muhim huquqiy institutdir. Bu yerda iqtisodchi va huquqshunos Frederick Abbott fikricha,

¹ Gervais, D. (2017) *The TRIPS Agreement: Drafting History and Analysis*. 4th edn. London: Sweet & Maxwell. <https://www.wildy.com/isbn/9780414023130/the-trips-agreement-drafting-history-and-analysis-4th-edition-hardback-sweet-maxwell-ltd>

² O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2005.-3b.

TRIPS majburiy litsenziyalashni ruxsat etar ekan, biroq u davlatlar uchun qattiq protsedura va shartlarni belgilab qo'yadi. Bu esa, ayniqsa, kambag'al davlatlar uchun amalda qo'llashni qiyinlashtiradi. TRIPS bitimi ayni paytda ikkita muhim yondashuvni ko'rsatib berdi: 1) intellektual mulk himoyasining global standartini o'rnatish; 2) jamoatchilik ehtiyojlarini tan olish. Aynan ushbu yondashuv majburiy litsenziya institutini zamonaviy xalqaro huquqda muhim vositaga aylantirdi³.

Tarixiy evolyutsiyaning amaliy bosqichlariga kelsak, ular bir necha davrlarga bo'linganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, post-kolonial davrda rivojlanayotgan davlatlar tajribasiga e'tibor bersaajburiy litsenziya instituti, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun o'ziga xos muvozanat vositasi sifatida ishladi. 1970-yillardagi "Yangi iqtisodiy tartib" g'oyasi doirasida ko'plab Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyo davlatlari mahalliy sanoatni rivojlantirish va dori-darmonlarga kirishni kengaytirish maqsadida patentlar ustidan davlat nazoratini kuchaytirgan edilar. Masalan, Hindiston 1970-yilda o'z patent qonunini yangilab, faqat ishlab chiqarish usullariga patent berishni ta'minladi va majburiy litsenziya berish shartlarini soddalashtirdi. Bu o'rinda Doha deklaratsiyasining o'rni katta hisoblanadi. 2001-yilda imzolangan mazkur deklaratsiya TRIPS bitimining sog'liqni saqlash masalalari bo'yicha ancha keng tushuntirishlarini o'z ichiga oldi va ko'plab noannqliklarga yechim berdi. Ushbu deklaratsiya, ayniqsa, OITS, sil va bezgak kabi kasalliklarga qarshi dori vositalariga kirishni ta'minlashda majburiy litsenziyalashni qonuniy deb e'lon qildi. Bu qaror dunyo miqyosida intellektual mulk huquqlari va inson salomatligi o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga xizmat qildi.

Dunyoda majburiy litsenziyalash institutining bevosita keng miqyosda qo'llanilishi yuqoridagi aspektlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lsada, COVID-19 pandemiyasi paytida bu institut yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. 2020–2021-yillarda COVAX⁴ tashabbusi, Vaksina Adolati Koalitsiyasi (GAVI)⁵, va Global Fond tashabbuslari orqali dori vositalarini litsenziyalash va yetkazib berishda majburiy litsenziyalar muhokama markaziga aylandi. Hindiston va Janubiy Afrikaning TRIPS bitimiga vaqtincha moratoriy joriy etish taklifi esa, 60 dan ortiq rivojlanayotgan davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi⁶.

Majburiy litsenziya, mohiyatan, ixtiyoriy litsenziyaning to'la aksi hisoblanadi⁷. Ya'ni, ixtiyoriy litsenziyada IM egasi o'z monopoliya huquqini o'z ixtiyori bilan boshqalarga taqdim etadi va litsenziya oluvchi bilan royalti (to'lov) miqdorida kelishadi. Majburiy litsenziyada esa bu qarorni huquq egasining xohishiga zid ravishda hukumat yoki sud qabul qiladi – ular kimga litsenziya berilishi va qanday shartlar asosida bo'lishini belgilaydi. Patentlarga doir majburiy litsenziyalar uchinchi shaxslarga patent egasining roziligisiz patentlangan ixtirodan foydalanish

³ Abbott, F. M. and Reichman, J. H. (2007) 'The Doha Round's Public Health Legacy: Strategies for the Production and Diffusion of Patented Medicines', *Journal of International Economic Law*, 10(4), pp. 921–987.

⁴ <https://www.who.int/initiatives/act-accelerator/covax#:~:text=COVAX%20was%20the%20vaccines%20pillar,tests%2C%20treatments%2C%20and%20vaccines.>

⁵ <https://www.gavi.org/>

⁶ UNCTAD (2021) The TRIPS Waiver Proposal: Challenges and Opportunities for Developing Countries. Geneva: United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/tdr2021_en.pdf

⁷ Bonadio, Enrico and Hingorani, Henna, Compulsory Licensing of Intellectual Property (July 1, 2023). book chapter in Cristiana Sappa (ed.), 'Research Handbook on Intellectual Property and Inclusivity' (Elgar), Forthcoming, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4521002> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.4521002>

imkonini beradi. TRIPS bitimining 31-moddasi⁸ bunday holatlarni “Huquq egasining rozilgisiz boshqa foydalanish holatlari” deb umumiy tarzda ifodalaydi. Bunday murakkab atamani ishlatilishi, ehtimol, siyosiy sabablar bilan bog‘liq. Xususan, TRIPS bitimi Urugvay muzokaralari davrida tuzilganida (bu jarayon Jahon Savdo Tashkiloti – JSTning tashkil topishiga olib kelgan) bu bitimni ishlab chiqqan tomonlar “majburiy litsenziya” kabi “keskin” iboralardan qochmoqchi bo‘lganlar. Chunki o‘sha paytdagi industrial rivojlangan va ilmiy-texnologik tadqiqotlarga katta e‘tibor beradigan davlatlar uchun bu ibora mulk huquqlarining musodara qilinishi (ekspropriatsiyasi) bilan barobar deb qabul qilinishi mumkin edi⁹.

Biroq bugungi kunda bu termin JST kontekstida endi tabu (taqiqlangan) emas, chunki u 2001-yilda JSTning vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilingan “TRIPS bitimi va jamoat salomatligi to‘g‘risidagi Doha deklaratsiyasi”da¹⁰ bevosita ishlatilgan. Bu yumshoq huquq (soft law) hujjati TRIPS bitimida nazarda tutilgan moslashuvchanliklardan foydalanish orqali asosiy dori vositalariga kirishni ta‘minlash maqsadida a‘zo davlatlarning huquqlarini qat‘iy tasdiqlagan.

TRIPSning 31-moddasi majburiy litsenziyalar qanday asosda berilishi kerakligini cheklamaydi — bu masala a‘zo davlatlarning ixtiyoriga topshirilgan. Bu holat yuqoridagi Doha deklaratsiyasining 5(b)-bandida ham o‘z ifodasini topgan, u yerda: “har bir a‘zo davlat majburiy litsenziyalar berish huquqiga va ular qanday asosda berilishini mustaqil belgilash erkinligiga ega” deb belgilangan.¹¹ Biroq, bu erkinlik majburiy litsenziyalarni asossiz va ixtiyoriy tarzda berishga yo‘l ochmasligi kerakligi ham ta‘kidlab o‘tilgan.¹²

Shuningdek, TRIPS 31-moddasida majburiy litsenziyalar berilishi qator shartlarga bog‘langan. Masalan, patent egalari “adolatli tovon” olishi kerak — bu tovon miqdori odatda bozor sharoitida erishilishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy litsenziya narxidan past bo‘lishi mumkin. Majburiy litsenziyani olishni istagan shaxs avval “o‘rtacha tijorat shartlarida” ixtiyoriy litsenziya olishga harakat qilishi lozim. Faqatgina “milliy favqulodda holat yoki boshqa favqulodda vaziyat”da bunday oldindan muzokara o‘tkazish talab qilinmaydi — bu holatda patent egasiga “imkon qadar tezroq” xabar berishning o‘zi kifoya qiladi.

Doha deklaratsiyasi, shuningdek, muhim qonunchilik tashabbusini ham boshlab bergan (uning 6-bandiga muvofiq) — bu esa oxir-oqibat TRIPSGa 31-bis moddasining qo‘shilishiga olib kelgan. Mazkur norma “waiver” (ya‘ni, cheklovni bekor qilish) tamoyiliga asoslangan bo‘lib, farmatsevtika mahsulotini o‘zida ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lmagan davlatga ushbu dori vositasini majburiy litsenziya asosida boshqa, eksport qilish huquqiga ega davlatdan import qilishga imkon beradi¹³. TRIPSning 31(f)-moddasida esa aslida bunday eksportga ruxsat

⁸ TRIPS: Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights, Marrakesh bitimining 1C-ilovasi — https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_01_e.htm

⁹ Maggiore, Massimo. ‘La Proprietà Intellettuale Nel Mercato Globale: L’approccio Dei Trips Con Particolare Riferimento al Diritto d’autore Ed Ai Brevetti.’ (1998) 47 Rivista di diritto industriale 167.

¹⁰ WTO Ministerial Conference, Declaration on the TRIPs Agreement and Public Health, WT/MIN(01)/DEC/2 (20 noyabr, 2001) — <https://ssrn.com/abstract=4521002>

¹¹ WIPO. Draft Reference Document on the Exception Regarding Compulsory Licensing, Standing Committee on the Law of Patents: Thirtieth session, 24 June 2019 — <https://www.wipo.int/meetings/en/details.jsp>

¹² Nuno Pires de Carvalho, The TRIPS Regime of Patent Rights, 2-nashr (Kluwer Law International, 2005)

¹³ WIPO ‘Draft Reference Document on the Exception Regarding Compulsory Licensing’, Standing Committee on the Law of Patents: Thirtieth session, 24 June 2019,

berilmaydi, va 31-bis moddasining maqsadi aynan ushbu taqiqni favqulodda hollarda chetlab o'tishga xizmat qiladi.¹⁴

TRIPSDan keyin berilgan majburiy litsenziyalar soni ko'p emas – ularning kam sonli holatlari Hindiston, Tayvan, Tailand, Ekvador va Braziliya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda berilgan. Buning sababi, ehtimol, yuqorida batafsil bayon etilgan TRIPS bitimiga kiritilgan talablar bo'lib, ular majburiy litsenziyani olishni TRIPSDan oldingi davrga nisbatan ancha murakkablashtirib qo'ygan. Keng yoritilgan majburiy litsenziyalardan biri Hindiston tomonidan 2012-yilda Natco kompaniyasiga berilgan bo'lib, bu litsenziya Sorafenib dori vositasiga tegishli edi — bu dori jigar va buyrak saratonini davolashda qo'llaniladi. Litsenziya Hindiston patent idorasi tomonidan Bayer kompaniyasi (patent egasi) Hindistondagi bemorlar uchun dori vositasining mavjudligini ta'minlash borasida yetarli harakat qilmagan degan qarorga kelgach berilgan. Natco avval Bayerdan ixtiyoriy litsenziya olishga harakat qilgan, biroq bu urinish muvaffaqiyatsiz yakunlangan edi.¹⁵

Shuningdek, Covid pandemiyasi davrida farmatsevtik patentlarga nisbatan bir nechta majburiy litsenziyalar qo'llanilgan yoki so'ralgan bo'lib, bu mamlakatlar qatoriga Isroil, Vengriya, Rossiya, Boliviya va Hindiston kiradi.¹⁶ Yaqinda o'tgan global pandemiya vaqtida Antigua va Barbuda hamda Boliviya TRIPSning 31-bis moddasidan foydalanish niyatini JSTga bildirganlar, bu esa Covid-19 bilan bog'liq dori vositalariga kirishni osonlashtirishga qaratilgan edi.¹⁷

Nihoyat, 2022-yil iyun oyida JST TRIPSning 31(f) moddasiga ikkinchi marotaba imtiyoz (waiver) bergan. Bu imtiyoz Covid-19 vaksinalarini zaruriy ehtiyojga ega davlatlarga eksport qilish uchun mo'ljallangan majburiy litsenziyalarni berishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Biroq, bu imtiyoz Hindiston va Janubiy Afrikadan dastlab taklif qilingan variantga qaraganda tor doiralidir – dastlabki taklifda vaksinalar bilan cheklanib qolmay, boshqa Covid bilan bog'liq texnologiyalarni ham qamrab olgan patentlar bo'yicha majburiy litsenziyalarga ruxsat berilishi nazarda tutilgan edi.

BIMT 2022-yilda bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2000–2022 yillarda dunyo bo'yicha 85 dan ortiq rasmiy majburiy litsenziya holatlari qayd etilgan bo'lib, ularning 70 foizi farmatsevtika sohasiga to'g'ri keladi. Bu holatlar asosan rivojlanayotgan davlatlarda yuz bergan. Xususan, Braziliya, Tailand, Keniya, Janubiy Afrika va Kanada eng faol foydalanuvchi davlatlar sifatida ajralib turadi. Aynan sog'liqni saqlash sohasidagi dolzarb muammolar – OITS, sil kasalligi, gepatit C, diabet va koronavirus pandemiyasi – majburiy litsenziyaning eng ko'p qo'llanilgan sohalari bo'lib qoldi.

https://www.wipo.int/meetings/en/details.jsp?meeting_id=50419. For an European perspective, see: 'Compulsory Licensing in Europe - A Country-by-Country Overview' (Munich, Germany: European Patent Office (EPO), 2018), www.epo.org/compulsory-licensing.

¹⁴ EPO (2018). Compulsory Licensing in Europe – A Country-by-Country Overview, Munich, Germany – www.epo.org/compulsory-licensing

¹⁵ Bonadio, Enrico, Compulsory Licensing of Patents: The Bayer/Natco Case (2012) European Intellectual Property Review, Vol. 34, No. 10, 719-728.

¹⁶ Enrico Bonadio & Magali Contardi, 2023. "Compulsory Licences During the COVID-19 Pandemic: A European and International Perspective," Springer Books, in: Ottavio Quirico & Katarzyna Kwapisz Williams (ed.), The European Union and the Evolving Architectures of International Economic Agreements, chapter 0, pages 209-225, Springer.

¹⁷ WTO https://www.wto.org/english/tratop_e/covid19_e/trade_related_ip_measure_e.htm webpage at accessed 11 July 2023.

Mazkur tarixiy tahlildan ko‘rinib turibdiki, majburiy litsenziya instituti ilk patent tizimlarida paydo bo‘lgan muvozanat prinsiplariga asoslanadi. U XX asrda globalizatsiya va TRIPS bitimi orqali xalqaro huquqning ajralmas qismi sifatida mustahkamlandi. XXI asrda esa global sog‘liqni saqlash inqirozlari va texnologik tengsizlik sharoitida bu institutning rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi. Shu nuqtai nazardan, majburiy litsenziya instituti intellektual mulk huquqining eng strategik va ijtimoiy jihatdan mas‘uliyatli mexanizmlaridan biri sifatida shakllanganini ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Intellektual mulk. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti mualliflar jamoasi. TDYU-2020.
2. I.B.Yakubova. Xalqaro intellektual mulk huquqi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDYU nashriyoti, 2021.
3. Gervais, D. (2017) The TRIPS Agreement: Drafting History and Analysis. 4th edn. London: Sweet & Maxwell. <https://www.wildy.com/isbn/9780414023130/the-trips-agreement-drafting-history-and-analysis-4th-edition-hardback-sweet-maxwell-ltd>
4. O.Oqyulov. Intellektual mulk huquqi. I.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2005.-3b.
5. Abbott, F. M. and Reichman, J. H. (2007) ‘The Doha Round’s Public Health Legacy: Strategies for the Production and Diffusion of Patented Medicines’, Journal of International Economic Law, 10(4), pp. 921–987.
6. UNCTAD (2021) The TRIPS Waiver Proposal: Challenges and Opportunities for Developing Countries. Geneva: United Nations. https://unctad.org/system/files/official-document/tdr2021_en.pdf
7. BIMO (2022) World Intellectual Property Indicators 2022. Geneva: World Intellectual Property Organization. <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-941-2022-en-world-intellectual-property-indicators-2022.pdf>.
8. Bonadio, Enrico and Hingorani, Henna, Compulsory Licensing of Intellectual Property (July 1, 2023). book chapter in Cristiana Sappa (ed.), ‘Research Handbook on Intellectual Property and Inclusivity’ (Elgar), Forthcoming, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=4521002>
9. WIPO ‘Draft Reference Document on the Exception Regarding Compulsory Licensing’, Standing Committee on the Law of Patents: Thirtieth session, 24 June 2019
10. WTO webpage at https://www.wto.org/english/tratop_e/covid19_e/trade_related_ip_measure_e.htm accessed 11 July 2023.
11. Maggiore, Massimo. ‘La Proprietà Intellettuale Nel Mercato Globale: L’approccio Dei Trips Con Particolare Riferimento al Diritto d’autore Ed Ai Brevetti.’ (1998) 47 Rivista di diritto industriale 167.
12. WTO Ministerial Conference, Declaration on the TRIPs Agreement and Public Health, WT/MIN(01)/DEC/2 (20 noyabr, 2001) – <https://ssrn.com/abstract=4521002>
13. <https://www.who.int/initiatives/act-accelerator/covax#:~:text=COVAX%20was%20the%20vaccines%20pillar,tests%2C%20treatments%2C%20and%20vaccines;>
14. <https://constitution.uz/oz/clause/index>
15. <https://lex.uz/docs/>